

PARADIGMATIK VA SINTAGMATIK MUNOSABATLAR XUSUSIDA

*N.Q.Turniyozov,
SamDCHTI professori*

Annotatsiya. Mazkur maqolada paradigmatic va sintagmatic munosabatlar xususida ayrim mulohazalar keltirilgan. Jumladan, fonematik sathdagi paradigmatic qator, morfologik sathdagi paradigmatic qator hamda mikrosintagmatic munosabatlar to'g'risida ayrim fikrlar qayd etilgan.

Kalit so'zlar: paradigmatica, sintagmatica, mikrosintagmatic munosabatlar, fonetik sath, morfologik sath, morfemalar, fonemalar.

Ma'lumki, til unsurlarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, xususan, paradigmatic sintagmatica va sintagmatic paradigmatica muammolarini o'rganish masalasi jahon tilshunosligida ham hali me'yor darajasiga yetganicha yo'q. O'zbek tilshunosligida esa mazkur masalalar talqini bobida hozirgacha biror tadqiqot ishi ko'zga tashlanmaydi. Faqat bugni emas, o'zbek tilshunosligida hali paradigmatic va sintagmatic munosabatlar tilning fonetik sathi materiallari asosida ham, morfologik, sintaktik sathlar materiallari asosida ham mukammal talqin etilmagan.

Til unsurlarining paradigmatic va sintagmatic munosabatlari nutq tovushlaridan tortib matngacha bo'lgan hududda kuzatiladi. Bu esa, o'z navbvtida, masala mohiyati til unsurlarining nutqda real qo'llanilishi bilan bevosita bog'liqligidan dalolat beradi. Bizningcha, bunday bo'lishi tabiiydir, albatta.

Chunki tilimiz voqeligi nutq tovushlari bilan mavjuddir. Ana shu tovushlar zamirida tilimizning katta-kichik barcha birliklari nutqiy faollik oladi.

Nutqning shakllanishi jarayonida tovushlar tinimsiz harakatda bo'ladi. Va buning natijasida ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari shakllanadi.

<i>biroq</i>	<i>i : p</i>	<i>bor</i>	<i>o : t</i>
<i>bilan</i>	<i>i : n</i>	<i>bol</i>	<i>o : sh</i>
<i>bilak</i>	<i>i : sh</i>	<i>tol</i>	<i>o : q</i>

tilak *i : t* *mol* *o : n*

Keltirilgan misollarda I va O unli fonemalarining paradigmatic munosabatlarini ko‘ramiz. Boshqacha aytganda, mazkur tovushlarning har ikkisi ham undosh fonemadan oldin (bir xil pozitsiyada) qo‘llanilishidan qat’i nazar, ikki xil paradigmaga bo‘y sunmoqda. Ularning birinchisini qisqa unlilar paradigmasi deb, ikkinchisini esa cho‘ziq unlilar paradigmasi deb nomlaymiz. Mazkur paradigmalar tovushlarning bir xil o‘rinlarda kelib qiyoslanishiga asoslanmoqda[1.24].

Aytish lozimki, bu singari fonemalarning paradigmatic munosabatlari tovushlar nutqda real qo‘llanganda vujudga keladi. Ammo shu bilan birga tilning fonetik sistemasida fonemalarning tayyor holdagi paradigmaları ham mavjuddir.

Bunday paradigmalar jumlasiga dastlab unlilar va undoshlar paradigmasini kiritamiz.

Tahlilining keyingi bosqichida esa ular ichidan quyi bosqichdagi paradigmaları ajratib ko‘rsatish mumkin: til oldi unlilari, til orqa unlilari, lablangan va lablanmagan unlilar paradigmasi, til oldi undoshlari, til orqa undoshlari, jaranglilar, jarangsizlar, sonor tovushlar paradigmaları. Bunday paradigmalar har qanday tilning fonetik sistemasida tayyor holda bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tili fonetik sistemasida til oldi undoshlari paradigmasini quyidagicha ko‘ramiz: *s, z, sh, j, t, d, ch, n, l, r, j (dj)*.

Tilning morfologik sathida paradigmatic munosabatlarni ham, sintagmatic munosabatlarni ham yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin. Bunda eng avval shunga e’tibor berish kerakki, morfologiyani tub maqsadlaridan biri so‘zlarni turkumlarga ajratishdan iboratdir. Bu, o‘z navbatida, so‘zlar paradigmalariga bo‘linishidan dalolat beradi. Masalan, ot, sifat, olmosh va hokazo kabilarga turkumlanish shu turkumdagi so‘zlarning paradigmaları taqozo etadi.

Biroq, yuqoridagilar bilan bir qatorda, morfologiyani eng kichik birligi morfema ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, so‘zlar paradigmasidan kichik morfemalar paradigmaları mavjudligini ham kuzatamiz. Boshqacha aytganda, morfemalar paradigmasi so‘zlar paradigmasidan kichik bo‘lgani uchun ular real

qo‘llanganda so‘z qobig‘ida o‘rinlashadi. Fikr isboti uchun quyidagi misolga murojaat etamiz:

maktab – ni

stol – ning

qalam – ga

daftar – da

kitob – dan

Keltirilgan misolda kelishik qo‘shimchalarini taqozo etuvchi morfemalar paradigmasini va ular o‘zidan katta so‘z praradigmasi qurshovida kelayotganligini ko‘ramiz. Bunday vaziyatda har bir paradigma komponentlarini tashkil etuvchi til birliklarining o‘ziga berktirilgan pozitsiyada (o‘rinda) kelishi xarakterlidir[2.6].

Yuqoridagi singari affiks morfemalar paradigmasi, asosan, sintagmatik qatorda shakllanadi. Bunga ko‘proq kelishik hamda egalik affikslari misol bo‘la oladi, zotan, ularning har ikkalasi ham so‘zlarning o‘zaro munosabatini ta‘minlashda faol qatnashadi:

Xona – ngiz – ning katit – i

Uy – imiz – ning deraza – si

Berilgan misollarda egalik va kelishik affikslari paradigmalari **xona** va **kalit**, **uy** va **deraza** so‘zlarining sintaktik munosabatga kirishuvi jarayonida sodir bo‘layotganligini ko‘ramiz.

Biroq morfologik paradigma faqat sintagmatik qatorning nutqiy voqelanishida emas, balki til sistemasi unsurlarining nutqqa ko‘chirilmagan holatida ham kuzatiladi. Buni yasama so‘zlar misolida ko‘rishimiz mumkin:

ish - chi

paxta - kor

o‘yin – chi

darvoza - bon

somsa – paz

til - shunos

etik – do‘z

kimyo - gar

arava – kash

soat - soz

Ayni paytda tilimiz sistemasida tayyor holda mavjud bo‘lgan yasama so‘zlarda ichki sintagmatik munosabat mavjudligini ko‘ramiz. Bu xildagi o‘zak va

affiks morfemalar munosabatini mikrosintagmatik munosabat deb ataymiz. Buning boisi bor, albatta. Chunki mazkur ko‘rinishdagi til unsurlari munosabati katta sintaktik munosabatdan farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baskakov A.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 1979, 24-bet.
2. Панов М.В. Русская фонетика. – М., 1967. – С.6.
3. Хайруллаев, Х. (2001). Сўз, сўз бирикмаси ва гапнинг предикативликка муносабати. номзодлик диссертацияси автореферати.- Тошкент.
4. Хайруллаев, Х. З. (2012). Об иерархических отношениях между языковыми единицами. Вестник Челябинского государственного университета, (6 (260)), 134-137.
5. Turniyozov, N. K., & Turniyozov, B. Turniyozova Sh. Uzbek language derivation syntax. “Navruz” publishing house, –Tashkent: 2011.
6. Turniyazov, B. N. (2008). Derivation of complex syntactic constructions with equal components in Present day Uzbek language. Samarkand, Uzbekistan.
7. Турниязова, Ш. (2022). Матн деривациясида инкор ва тасдиқ сўзларнинг ўрни. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar: xorijiy tajribalar, istiqbolli izlanishlar va tillarni o‘qitishning innovatsion usullari, (1), 81-83.
8. Nigmatovna, T. S. (2022). TEXT IS A HIGH-LEVEL SYNTACTIC UNIT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(5), 263-269.
9. Туробов, А. (2020). Ог „заки ва ёзма нутқ хусусида. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 15-16.
10. Туробов, А. (2021). ҚЎШИМА СЎЗ–МИКРОСИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР ОБЪЕКТИ СИФАТИДА. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).

